

## ONA TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHDA DIDAKTIK O'YINLAR ROLI

**F.Rajabov, O.Ahmadjonov, B.Pardayeva**

Qarshi MII akademil litseyi o'qituvchilar

**Annotatsiya** Bu maqolada ona tili darslarini samarali tashkil etish, fanga oid mavzularni o'quvchining ongiga sindirishda didaktik o'yinlar va yangi pedagogik texnologiyalar samarasini tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar** didaktik o'yinlar, Abu Ali ibn Sino, sujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, anjumanlar, o'yin-mashqlar.

Biz o'quvchilarni ijodkorlikka, mustaqil fikrlashga o'rgatmas ekanmiz, mustaqil O'zbekistonning «o'ziga xos, o'ziga mos» yo'ldan borishiga sabab bo'ladigan, milliy urf-odatlarimiz va milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalanayotgan yoshlarimizga to'g'ri ta'lif-tarbiya bera olmaymiz. Shuning uchun bu narsalarni eng avvalo, har bir pedagogning ish rejasida, dasturlarida o'z aksini topishi lozim.

X asrdayoq buyuk Abu Ali ibn Sino Sharq ko'proq nasihat yo'li bilan, G'arb esa hayotni real ko'rsatish orqali kishini tarbiyalashga moyilligini maxsus qayd etib o'tgan edi. Bugungi kunda ham bu qarash eskirmagan desak xato bo'lmaydi. Chunki hozirgi maktab, akademik litsey va kollej o'quvchilariga ta'lif bilan birgalikda tarbiya ham uyg'unlikda olib borilyapti. Biz tarbiyani bolaga xalq og'zaki ijod namunlari bilan birgalikda turli o'yinlar va bu o'yin qonuniyatları orqali ham olib boramiz. Shunday ekan o'quvchilarga ona tili ta'lif jarayonida didaktik o'yinli texnologiyalar didaktik o'yinli dars shaklida qo'llaniladi. Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi.

O'quvchi hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali o'quvchining o'qishga, mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi va o'yin davomida o'quvchining muloqotga kirishishi ya'ni, kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi;


- o'quvchining o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratadi;

- hayotda va o'yin jarayonida yuz beradigan turli qiyinchiliklarni yengishga va mo'ljalni to'g'ri olish ko'nikmalarini tarkib topishiga yordam beradi;

- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq-atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi, o'quvchining ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi;

- o'yin ishtirokchilarida ommaviy muloqot madaniyatini rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'quvchilarning bilim olishi va o'yin faoliyatining uyg'unligiga qarab: *sujetli-rolli o'yinlar, ijodiy o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, anjumanlar, o'yin-mashqlarga ajratish lozim*. Buni quyidagi chizma orqali chuqurroq anglash mumkin.



O'qituvchi-pedagog avval o'quvchilarni individual (yakka tartibdagi), so'ngra guruhli o'yinlarga tayyorlashi va uni o'tkazishi, o'yin muvaffaqiyatli chiqqandan so'ng esa, ularni ommaviy o'yinlarga tayyorlashi lozim.

O'qituvchi-pedagog ona tili darslarida didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishga qizg'in tayyorgarlik ko'rishi va uni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga riosa qilishi talab etiladi:

- didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta'lif- tarbiyani rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo'lishi;
- jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib, ular o'yin davomida hal qilinishi;
- barkamol o'quvchini tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq normalariga mos kelishi;
- o'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo'lishi;
- mashg'ulotlar davomida didaktik tamoyillarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishishi kerak.

Yuqorida keltirilgan didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazish orqali ona tili darslari oldiga qo'yiladigan vazifalar va ularni amalga oshirish yo'llari, har qanday mukammal dastur asosida yaratilgan, takomillashgan darslik, samarador usullar bilan o'quvchilar ongiga singdirilgandagina kutilgan natija berishi mumkin.

Hozirgi zamon talabi darajasida dars o'tish uchun o'qituvchilarga quyidagi omillar asos bo'lmoq'i lozim.

1. Didaktika va tarbiya nazariyasi bilan puxta qurollanish;
2. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish;
3. O'z fani bo'yicha yangiliklardan boxabar bo'lish;
4. Dars o'tishning noan'anaviy usullarini amaliyotda qo'llash;
5. O'quvchilarning bilimi, malakasi va ko'nikmalariga mos tarzda ta'lif mazmunini yangilash;
6. O'qitishda kompyuterlarni joriy etish;
7. Nutqiy jihatdan barkamol bo'lish, ishontirish, isbotlash, malakalarini egallah.

Yangi pedagogik texnologiyalarga muvofiq talaba ona tili materiallarini tayyor holda o'zlashtirmay, uni izlashi, ijodiy faoliyat ko'rsatishi zarur.

Yurtboshimiz «O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan ham jahonni qoyil qoldirishi lozim» deb aytgan gaplari ta'lif-tarbiya jarayoni uchun juda muhimdir. Prezidentimiz ana shu yuksak va ulug'vor vazifani muvaffaqiyatli hal etishda xalqning milliy madaniyati va o'ziga xosligini ifoda

etuvchi vosita bo‘lmish O‘zbek tilini rivojlantirish, bu tilning davlat maqomini izchil va to‘liq ro‘yobga chiqarish lozimligini alohida ta’kidlab o‘tgan. Biz pedagoglar bu narsani dars davomida didaktik o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘tkazish va yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalansak, albatta maqsadga erishamiz.